



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

THE INTRODUCTION OF GENDER ISSUES IN PRESCHOOL EDUCATION ON THE EXAMPLE OF FOLK PEDAGOGY

Dilafruz I. Askarova

lecturer

Fergana State University,

Fergana, Uzbekistan

Marifat K. Jabborova

lecturer

Fergana State University,

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: education, innovation, gender, folk pedagogy, pedagogical technologies.

Received: 29.10.22**Accepted:** 31.10.22**Published:** 02.11.22

Abstract: this article gives an idea of the gender concept and folk pedagogy. The issue of introducing gender issues into preschool education through folk pedagogy was also raised.

MAKTABGACHA TA'LIMDA GENDER MASALALARINI XALQ PEDAGOGIKASI MISOLIDA SINGDIRISH

Dilafruz I. Asqarova

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti,

Farg'ona O'zbekiston

Ma'rifat Q. Jabborova

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti,

Farg'ona O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, gender, xalq pedagogikasi, pedagogik texnologiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tushunchasi va xalq pedagogikasi haqida tushuncha berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'linda gender masalalarini xalq pedagogikasi orqali singdirish masalasi tadbiq etilgan.

ВНЕДРЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ ВОПРОСОВ В ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Дилафруз И. Аскарова

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

Марифат К. Жабборова

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: образование, инновации, гендер, народная педагогика, педагогические технологии.

Аннотация: эта статья дает представление о гендерной концепции и народной педагогике. Также был поставлен вопрос о внедрении гендерных вопросов в дошкольное образование через народную педагогику.

KIRISH

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayonida samarali hamda sifatli ta’lim va tarbiya shakllari, usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamlı ishlar amalga oshirildi[1].

Har qanday jamiyat rivoji ana shu jamiyatda istiqomat qilayotgan har bir yosh avlod tarbiyasiga bevosida bog‘liq. Shunday ekan, bu masalani, avvalo, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlashga e’tibor qaratish maqsadga muvoviqdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi aqliy tafakkuri oppoq qog‘oz misoli bo‘lgan, tevarak atrofga teran nigoh bilan boquvchi jajji ,beg‘ubor bolajonlar tarbiyasiga e’tibor qaratilganda, avvalo, ularning ongini o‘zbek xalqimizning boy ma’naviy, ahloqiy, madaniy me’rosi bilan tanishtirish bilan boshlash zarur. Bu orqali bolalar tafakkurida ertangi kunga ishonch, vatanga muhabbat va milliylik ruhi barq uradi. Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. Gender tushunchasini maktabgacha ta’limdan boshlab bolalarga singdirishimiz esa bizga kelajakda juda katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

ASOSIY QISM

Gender tenglik nafaqat inson huquqini ta’minalash, balki, jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan ezgu qadriyatdir. Qolaversa, gender tenglik — bu, mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi indikatorlardan biri

hisoblanadi. Gender — xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan muhim ijtimoiy ko‘rinish. Shu jihatdan olganda, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi, balki, har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ifoda etadi.

Maktabgacha ta’limda gender tushunchasini xalq pedagogikasi orqali singdirish esa samarali natija beradi.

Xalq pedagogikasi borliq olamning, tafakkurning, tasavvurning, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaning barcha jabhasini, butun muammolarini,jamiki yechimlari bilan birga qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Uning oldiga qo‘ygan maqsad vazifasi aniq, ravshan, maqsadli,ayni chog‘da xayrli, savobli va ilohiydir: hayot guli, sarvari, egasi bo‘lmish insonni yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashdir[2].

Mazkur jarayonda har bir kamol topib kelayotgan yosh avlod ong-u, tafakkurida yuksak axloqiy tuyg‘ularni, fazilatlarni tarkib toptirib borishda, yaratilgan ijobiy muhit muhim o‘rin tutadi. Negaki, bolada yuzaga keladigan ijtimoiy xulq-atvor aynan maktabgacha ta’lim tashkilotida nomoyon bo‘lishi, yuzaga kelishi hech kimga sir emas. Aynan maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar ayollar, lekin bu muassasada qiz farzandlar bilan birgalikda bo‘lajak er-yigitlar ham tarbiyalanadi Bu xususida fransuz psixolog E. Dyurkgeym” ulg‘ayish - kishilarning his-tuyg‘ularni o‘zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an’ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o‘rin tutadi” deb aytib o‘tadi[3].

Aynan mana shu jihatlarni hisobga olagan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yosh avlodni gender tenglik ruhida tarbiyalash, xalqimizning ta’lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini o‘rganadi, bu esa bo‘lg‘usi jamiyat egalarini bevosita amaliy faoliyatga tayyorlashga, ta’lim-tarbiya tizimini milliy ruh bilan sug‘orishga yordam beradi.

Zero, o‘zbek milliy an’analarini, urf-odatlarni har tomonlama o‘rganish, taddiq qilish, talabalarga ularning mazmuni va tarbiyaviy xususiyatlarini tushuntirish, ulardan ilmiy metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish, talabalarda, o‘qituvchilarda, jamoatchilikda gender tengligi tushunchasiga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ular asosida kishilarning madaniy, axloqiy, jismoniy, ma’naviy darajasini yuqori saviyaga ko‘tarish kabi bugungi kunning dolzarb muammolarini hal etishda ham gender tengligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jins va gender tushunchalarini farqlash borasidagi birinchi urinish 1968 - yil Kaliforniya universiteti professori psixolog Robert Stoller va endokrinolog Jon Money tomonidan amalga oshirilgan. Evig Goffman ham “gender” terminini birinchilardan bo‘lib qo‘llagan sotsiolog Sofiya Babayan fikriga ko‘ra, “Gender” ijtimoiy tushuncha. Olim “Aylol yoki erkakning benuqson timsoli, xronologik va geografik muhitning rang-barangligi, milliy an’analari, dini, tarixi, milliy mentaliteti va boshqalarda ifodalanadi”[4] deb yozadi.

Gender tenglik – bu nafaqat insonning asosiy huquqlarining ifodasi, balki tinchlik, farovonlik va barqaror rivojlanishga erishishning zarur asosi hamdir. Bugungi kunda mamlakatimizda ayollar va erkaklarning teng huquqliligin ta’minalash, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish, ayollarni turli mas’uliyatli lavozimlarga tayinlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar ishining sifatini baholash, lavozimda ko‘tarilish masalalari bo‘yicha barchaga teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan gender tenglikni ta’minalash mezonlari mavjud emas

Biz an’analalar bilan yashaydigan xalqmiz. Lekin taraqqiyot istasak, qonunlar bilan ham yashashni boshlashimiz kerak. Urf-odatlar shunchaki urf-odat bo‘lgani uchun emas, inson sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘lagani, turmushini qulay qilgani, munosabatlarni uyg‘unlashtirgani bilan qadrli. Ijobiy urf-odat va an’analarni insonni kamsituvchi va tahqirlovchi illatlardan farqlashda o‘rtada faqat bir mezon turadi: inson shaxsi va uning huquqlari. Biz ko‘zi ochiq millat sifatida bu farqni ajratib olishimiz lozim[5].

XULOSA

Pedagogikada genderli yondoshuv faqat yangi muammoviy mavzuni ochibgina qolmasdan, balki eski muammolarga yangicha qarash imkonini beradigan real fanlararo loyihaga aylanmoqda. O‘g‘il bolalar va qiz bolalar bilish mexanizmlarining hisobga olinishi, o‘quv materialini idrok qilishlari va ishlab chiqishdagi farqlarning tan olinishi ta’lim sifatini oshirishda yangi istiqbollar ochadi. Shu bilan bir vaqtida haqiqiy erkak kishini tarbiyalashda g‘ayratilik, erkinlik, tashabbuskorlik, mustaqillik muhim xislatlardir. Hozirgi kunda farzand hayoti va keyinchalik mehnat faoliyati ham yoshlar o‘z hayotiy yo‘llari uchun mas’uliyatni o‘zlariga olish, o‘z qarorlari uchun javob berish, atrofidagi olamni va bu olamda o‘zini o‘zi qabul qilishga tayyorligini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, Muhtaram Prezidentimizning “Shu o‘rinda meni ongimizda chuqur ildiz otgan bir aqida ko‘p o‘ylantiradi. Biz doimo ayol – bu ona, oilamiz bekasi, deb ularni ulug‘laymiz. Bu to‘g‘ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart.”-degan fikrlari vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarimiz uchun ham dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 14 iyuldagи videoselektor yig‘ilishida ham yoshlar va xotin-qizlar bandligini oshirish, ularni daromad manbai bilan ta’minalash masalalari yuzasidan mutasaddi vazirlik va hokimliklarga bergan topshiriqlari, bu borada belgilab bergan yo‘nalishlari bizning vazirlik tizimida gender masalalarini ijobiy hal etish borasida ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar uchun muhim asos bo‘ldi.

Gender tenglik strategiyasining asosiyo yo‘nalishlari:

- xotin qizlar ijtimoiy faolligini oshirish;
- rahbarlik lavozimlariga ayollarни tayyorlab, tavsiya etib borish;
- ayollar bandligini ta’minalash, ular uchun munosib ish o‘rinlari yaratish ishlarini davom ettirish;
- ayollar tadbirkorligini rivojlantiramiz, ularning moliyaviy resurslarga egalik qilish huquqlarini qat’iy talab qilish;
- eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan bo‘layotgan ayrim zo‘ravonlik holatlarini to‘liq bartaraf etish;
- imkoniyati cheklangan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash;

Ushbu strategiyaning yana bir muhim jihat - bundan buyon bu ishlar bilan nafaqat xotin-qizlar qo‘mitalari, balkim barcha vazirliklar, hokimliklar ham shug‘ullanadi.

Shuningdek, Xotin qizlar qo‘mitasi tomonidan Xotin qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil qilinib u erda ayollar tadbirkorlikka o‘rgatish, kasb-hunar o‘rgatish va imtiyozli kreditlar ajratish yo‘lga qo‘yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. PQ-4312 08.05.2019. “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”
2. M.Mutalipova Xalq pedagogikasi – o‘quv qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent - 2011
3. David G. Myers. “Psychology ninth edition in modules”. NY, WORTH PUBLISHER-2010. 185pages.
4. Shahnoza Razakova (2020). Tarjimada paydo bo‘ladigan muammolar Uz.Academia.№1
5. 27 Avgust 2019. Jamiyat. Furqat Tojiyev, Shahnoza Soatova. Adliya vazirligi mas’ul xodimlari
6. Холматова, З. Т. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В ПЕДАГОГИКЕ. *Гуманитарный трактат*, (61), 77-80.
7. Холматова, З. (2021). Ўзбекистонда гендер тарбия–оила мустаҳкамлиги меъзони. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

8. Холматова, З. Т. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВ МОДЕЛИНИНГ ХАРАКТЕРИСТИКАСИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*,
9. Kholmatova, Z. T. (2019). GENDER EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. *Scientific Bulletin of Namangan State University*,
10. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Экономика и социум*, (6-1), 129-132.
11. Jabborova, M. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASH TIZIMIDA MALAKAVIY AMALIYOTNING ROLI. *Scientific progress*, 3(4), 167-173.
12. Kodiraliyevna, J. M. (2022). TARBIYACHI KASBINING MA'NAVIY AXLOQIY NEGIZLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 64-70.
13. Zhabborova, M. R. K. (2021). Мактабгача таълим соҳаси талабаларида бошқарувчанлик қобилиятларини ривожлантириш. *Молодой ученый*, (17), 394-395.
14. Dilafruz, Y., Marifatxon, J., Rasuljonovna, E. Z., & Muqaddasxon, M. (2022). MAKTABGACHA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 121-125.
15. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. *Экономика и социум*, (6-1), 156-159.
16. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.
17. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК* Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 37-38.
18. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 181-185.
19. Karimov, U. U. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of the Formation of the Social Environment in the Family. *Oriental Journal of Social Sciences*, 37-40.
20. Тешабоев, М., Каримов, Ў., & Каримова, Г. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ТАРБИЯСИГА САЛЬБИЙ ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 382-388.

21. Dilafruz, A. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VA OILADA GENDER XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 183-189.
22. Askarova, D. I. (2022). THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 89-96.